

Texnologiya Fani Darslarini Samaradorligini Oshirishda Zamonaviy Pedagogika Va Innovatsion Texnologiyalaridan Foydalanish

Safarov Feruz Saminjon o'g'li

Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti, Texnologik ta'lim o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada texnologiya fani darslarini o'qitish samaradorligini oshirish, texnologiya fanini o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari, yangi information pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilishning muhim ahamiyatlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Pedagogik, innovatsion texnologiyalar, texnologiya, ko'rgazma, qo'llanma, radio, audio-video yozuv.

Mamlakatimizning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Hozirgi kunga kelib deyarli barcha fanlarni o'qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan keng qo'llanilib kelinmoqda. Texnologiya fani darslari boshqa fanlar bilan birgalikda umumiy didaktik tamoyillarni qo'llashda va uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O'quvchilar yoki talabalar bilish faoliyati bilangina emas, balki yaratish faoliyati bilan ham shug'ullanadilar. Texnologiya fani mehnat qurollari, jarayonlari oddiy o'rganish obyekti sifatida emas, balki talabalar amaliy ishlarini takomillashtirishda pedagogik texnologiyalar, didaktik material, ta'limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo'lib, u ta'limning zaruriy sifatini ta'minlaydi va jadallashtirish ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiiq etishning izchil metodidir. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya-texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning xamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb yuritiladi. O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asosan darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor,elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o'tishi ham mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi. "Faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi."-degan edi mashhur pedagog A.Nikolskaya.

Innovatsion texnologiyalardan asosiy maqsad o'qituvchi va o'quvchi mushtarakligiga erishish, o'quvchilarni fanga qiziqtirish, ta'limga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, o'rganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish, axborot kommunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallarni mavzu bilan uyg'unlashtirish kabilarni keltirish mumkin.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Pedagogik texnologiya va pedagog maxoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchitalabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar kelajakda ham mehnat bozorida talab mavjud bo'ladigan zamonaviy mutaxassis-kadrlarni tayyorlash uchun ta'lim jarayonida juda muhim ahamiyatga egadir.

Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi: - yangilikni qo'llashga tayyorligi; - pedagogik yangiliklarni qabul qilishi; - novatorlik darajasi; - kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi; - ijodkorligi. Innovatsion faoliyat-yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir.

Shu boisdan texnologiya fanini o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari bor. Ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning mavqeyi kun sayin ortib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bugungi ta'limning imkoniyatlarini yanada kengaytirib kelmoqda. Bugungi kunga kelib istalgan joydan turib istalgan ilm maskaniga xohlagan vaqtda zamonaviy texnologiyalar asosida o'qish imkoniyatini bermoqda. Bu esa An'anaviy ta'limdan farqli o'laroq ham vaqtni ham xarajatni kamaytirishiga erishilib ta'lim jarayonini sezilarli darajada rivojlanishiga olib kelmoqda. Texnologik fani dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning talabalar uchun afzalliklari shundan iboratki: talabalarning taassurotlarini boyitishga, ma'lumotlarni o'zlashtirish tezligini oshirish; o'qituvchining ish unumdorligini oshirish va ortiqcha xarajatlardan holi bo'lishiga; virtual laboratoriyalar orqali laboratoriyalarni bajarish imkonini bajaradi: o'rganishni tezligini oshirish vaqtni kamaytirish; ko'proq darsda ko'rsatib namoyish qilib dars o'tish, bu materialni to'liq anglashga va yaxshiroq yodlashga hissa qo'shadi.

Talabalarga texnologiya darslarida ijodkorlikni, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida turli va tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatish orqali bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan. Talabalarni texnologiya fanini to'liq o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi information pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytganda texnologiya darslarida pedagogik texnologiyalaridan keng foydalanilsa, talabalar texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllanadi, texnologiya ta'limi darslari sifati samarali bo'ladi.

Faydalanilgan adabiyotlar

1. Saminjon o'g'li, S. F. (2023). INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI O'QUV JARAYONLARIDA QO'LLASH VA LOYIHALASH METODI. Наука и технологии, 1(2).
2. Saminjon o'g'li, S. F. (2024). TEXNOLOGIYA TA'LIMI AMALIY MASHG'ULOTLARIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(2), 295-297.
3. Panjiyevich, XI (2024). Sun'iy intellektning o'zbekistonda rivojlanishi va professional ta'limda qo'llanilishi. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI , 4 (2), 257-259

4. Eshmurzaevich Q. B. O'QUVCHILARNING «TEXNOLOGIYA» FANIDA HUNARMANDCHILIKKA OID MAXSUS KOMPETENSIYALARINI RAQAMLI TA'LIM MUHITDA RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI //Наука и технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2.
5. Sherali o'g'li, A. J. (2024). The Essence of Interactive Methods In The Development Of Students' Knowledge Of Technical Safety In The Credit-Module System. Progress Annals: Journal of Progressive Research, 2(2), 30-36.
6. Абдусаломов, О. А. (2021). PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARIDAN TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARIDA FOYDALANISHNING AHAMIYATI: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.42.94.078> Abdusalomov Oxunjon Abdusalomovich, Termiz davlat universiteti magistranti. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1-Махсус сон), 39-41.